

## **YURIDIK TIL – O‘ZBEK ADABIY TILINING TARKIBIY QISMI**

Halimova Gulbadanbegim Ramazon qizi

**Buxoro viloyati Yuridik texnikumi**

**Sud huquq faoliyati yo‘nalishi 2- kurs talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7221014>

Annotatsiya: Ushbu maqolamda yuridik til va uning o‘ziga xos xususiyatlari, turlari hamda O‘zbek adabiy tilining mezonlari, rivojlanish tarixi, sofligi va birligi, uning hayoti, o‘mishi va kelajagi yoritilgan. O‘zbek tilining boshqa tillardan ustunligi hamda uning rivojlanishiga hissa qo‘shgan insonlar haqida bayon etilgan. Yuridik til haqida umumiy ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: yuridik til, adabiy til, boylik, mutafakkir, ajdod, O‘zbekiston Respublikasi, kostitutsiya, komunikatsiya, tizim, purma‘no, jozibdor, xamsanafis, muhtaram, prezident, ta‘bir, tafakkur

Til –bu millatning ruhi, uning or-nomusi, ma‘naviy qiyofasi, orzu-umidlarning namunasidir. Ona tili millatning birligi va birdamligining timsoli hisoblanadi. Til millatni xalq sifatida o‘z atrofida birlashtiradi. Har bir insonning o‘z vatani, jonajon oilasi bo‘lgani kabi O‘zbek tilining oilasi-bu Turkiy tilidir. Ushbu oilaga mansub bo‘lgan o‘zbek tilimiz bizning bebaho boyligimizdir. So‘z mulkingning sultoni buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o‘zi yashagan murakkab davr-XV asrda tilimiz himoyasiga o‘tlanib, turkiy til o‘z imkoniyatlari jihatidan boshqa tillardan sira qolishmasligini ilmiy va amaliy jihatdan isbotlab bergan.

Bugungi kunda yer yuzida mavjud bo‘lan 7000 ga yaqin til hind-yevropa, xom-som, turkiy, xitoy-tibet, singari bir nechta til oilalariga bo‘linadi. Masalan, o‘zbek, turk, turkman, qirg‘iz, qozoq, boshqird, ozarbayjon, bolqor, tatar, uyg‘ur singari tillar bir oilaga mansub bo‘lib, ular Turkiy tillar oilasi nomi bilan yuritiladi. Qarindosh kishilar bir ajdoddan tarqalgani kabi, qarindosh tillar ham bir ajdod tilidan kelib chiqqan. O‘zbek tili bizning yurtimizda 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘zbek tili huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi. O‘zbek tili to‘g‘risidagi qonun qabul qilinganidan so‘ng barcha ish hujjatlari o‘zbek tilida yuritildi, gazeta va jurnallar o‘zbek tilida chop etila boshlandi. 1993-yil 2-sentabrda „Lotin tiliga asoslagan o‘zbek alifosini tuzish to‘g‘risida“gi qonun qabul qiliganidan so‘ng, mamlakatimiz har tomonlama rivojlandi va jahon komunikatsiya tizimidan munosib o‘rin egallash muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu sababli ham chet ellarda ham o‘zbek tiliga qiziquvchilar, uni o‘rganuvchilar soni ortib bordi. Dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud bo‘lib, bundan 200 tasiga davlat tili sifati qabul qilingan. Ularning orasida o‘zbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal, purma‘no va jozibadorligidan darak beradi.

Rossiylilik tilshunos olim professor A.M. Ko'zlyanina „ O'zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador ”deb bejiz takidlamagan. Bu bilan Ko'zlyanina nima demoqchi ya'ni o'zbek tilining go'zal ekanligi, jozibadorligini musiqaning ohangidek yoqimli ekanligiga o'xshatadi. Har qanday mamlakatda til bitta va yagona bo'ladi hamda ish hujjatlarning barchasi yuridik tilda olib boriladi.

Yuridik til o'zbek adabiy tilining tarkibiy qismi, o'ziga xos ko'rinishga ega til bo'lib, asosan, qonunchilik va rasmiy doirada qo'llaniladi. Ya'ni yuridik til o'ziga xos lug'aviy birliklari, gap qurilishi, uslubiy jihatlari va huquqqa oid tushunchalarni ifodalovchi atamaları bilan ajralib turadi. Barcha huquq manbaalari yuridik tilda yoziladi. Tergov jarayoni, sud, advokat faoliyati, qonunlar ifodasi ham yuridik til asosida o'z in'ikosini topadi. Yuridik til har xil beo'rin qaytariqlar, so'z takrorlari, tushinilishi qiyin ifodalar hamda ortiqcha sifatlashlar, ko'chma ma'noli so'zlardan xoli bo'lishi lozim.

Taniqli huquqshunos olim professor A.F.Saidov ta'kidlaganidek, “Yuridik til-ko'p ming yillik taraqqiyot va ko'p avlodlar tajribasi mahsuli” huquq rivojlanishining tarixiy tajribalarini o'zida mujassam qilgan yuridik til inkor etish mumkin bo'lmagan qadriyatlar, huquqiy ma'daniyatning ajralmas qismidir”. Yuridik tilning tarkibiy qismi bo'lgan qonun tili gap qurilishi jihatdan tushunilishi yengil va oddiy fuqaro ham tez tushunib oladigan, talablarga javob beradigan bo'lishi shart.

Adabiy til – muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me'yorlashtirilgan, mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. “Qayta ishlangan” tushunchasi nisbiy (tarixan turli davrlarida, turli xalqlarda adabiy til o'zgarib turgan). Hatto ayrim bir xalqqa ham adabiy til turli davrda turlicha bo'gan (masalan, qadimgi turkiy-adabiy til, hozirgi o'zbek adabiy til)”. Ba'zi davrlarda bir xalq uchun boshqa bir xalq tili adabiy til vazifasini o'tagan. Adabiy tilning ikki-og'zaki ham yozma ko'rinishi mavjud. Har qanday Adabiy til xalq og'zaki nutqi asosida shakllanib, shu xalq tiliga xos shevalarni umumlashtiradi va barcha sheva vakillari uchun tushunarli shaklni oladi.

Nutq madaniyatining asosiy mezonini adabiy til me'yorlari hisoblanadi. Adabiy til meyorlar deyilganda, til vositalarining umumxalqqa tushunarli bo'lgan muqobil variantlarini tanlash tushuniladi. Ana shu tanlab olingan variantlar hamma uchun majburiy bo'ladi. Masalan, o'zbekiy adabiy tilidagi kelishiklar, zamon, tuslovchi qo'shimchalar respublikamiz hududida istiqomat qiluvchi barcha sheva vakillari uchun majburiy hisoblanib, bu meyorning buzilishi nutq madaniyati zaiflashuviga olib keladi. Ya'ni qaratqich kelishigi qo'shimchasi o'rnida tushum kelishi qo'shimchasini qo'llash xatodir. Binobarin, qaratqich

kelishigidagi soʻzning ot yoki otlashgan soʻzlar bilan bogʻlanishi adabiy mayor boʻlib barcha uchun majburiydir. Bularning oʻrnini almashtirib ishlatish uslubiy xato hisoblanadi.

Suvsiz daryo boʻlmaganidek, tilsiz millat ham vujudga kelmaydi. Biror millatga mansub boʻlgan til oʻsha millat bilan yashaydi va bardavom boʻladi. Otabobolarimiz qadimdan tilni asrab avaylashgan, rivojlantirishgan. Masalan, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Jahon Otin Uvaysiy, Muhammad Rizo Ogahiy va boshqaladir. Alisher Navoiy birinchilardan boʻlib xamsanafislar orasida oʻzining shoh asari boʻlmish xamsasini turkiy tilida yaratdi. Bu bilan Navoiy birinchi boʻlib turkiy tilining rivojlanishi uchun ilk qadamni tashladi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Hozirda ham shoirlarimiz oʻzbek tilining boyligini, uning buyukligini namoyon etuvchi asarlar yaratmodalar. Muhtaram birinchi perzidentimizning taʼbirlar bilan aytgana “Oʻzlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar oʻrtasidagi ruhiy-milliy, bogʻliqlik til orqali vujudga keladi”. Bu fikrlarni doimo yodimizda saqlashimiz lozim. Darhaqiqat, tilsiz millat rivojlanmaydidi, taraqqiy etmaydi. Tillarni saqlanib qolishi uchun ularni qoʻllab-quvvatlash kerak. Aynan til tufayli insoniyat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxrlanib yashaydi. Barcha tiillarni tan olish va hurmat qilish, tinchlikning birdan bir kafolatidir.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsam, tilni sevish, uni asrab, avaylab, ardoqlash, millatni sevish, uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, madaniyati uning tilida oʻz ifodasini topadi. Biz esa oʻz ona tilimizni asrab avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz, goʻzal va sofligini ajdodlarimiz bizga qanday qolgan boʻlsa biz ham avlodlarimizga ortigi bilan meros qilib qoldirishimiz, dunyoga tanitishda oʻz hissamizni qoʻshishimiz kerak. “Til yashasa, millat yashaydi”. Agarda biz oʻz tilimizning boyligini, koʻrkamligini dunyoga tarannum etsak, millatimiz yana charogʻon boʻlishi yoʻlida ozgina boʻlsa ham oʻz hissamizni qoʻshgan boʻlamiz.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Umumtaʼlim maktablarining 9-sinf darsligi. Toshkent. 2019
2. Umumtaʼlim makatlarining 6-sinf darsligi. Toshkent. 2017
3. I. Karimov “Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch” Toshkent. 2013
4. <http://www.uz.lex.uz>
5. Yuristning nutq madaniyat. Toshkent. 2005